

BEMOR (O'tmishdan)

Osmon yiroq, yer qattiq

Maqol

Sotiboldining xotini og'rib qoldi. Sotiboldi kasalni o'qitdi — bo'lmadi, tabibga ko'rsatdi. Tabib qon oldi. Betobning ko'zi tinib, boshi aylanadigan bo'lib qoldi. Baxshi o'qidi. Allaqanday bir xotin kelib tolning xipchini bilan savaladi, tovuq so'yib qonladi... Bularning hammasi, albatta, pul bilan bo'ladi. Bunday vaqtlarda yo'g'on cho'ziladi, ingichka uziladi.

Shaharda bitta doktoixona bor. Bu doktorxona to'g'risida Sotiboldining bilgani shu: salqin, tinch parkda, daraxtlar ichiga ko'milgan baland va chiroyli oq imorat: shisha qabzali kulrang eshigida qo'ng'iroq tugmasi bor. Chigit po'choq va kunjara bilan savdo qiladigan xo'jayini Abdug'aniboy, omborda qulab ketgan qoplar ostida qolib o'ladigan bo'lganida bu doktorxonaga bormay Simga¹ ketgan edi. Doktorxona deganda Sotiboldining ko'z oldiga izvosh va oq podshoning suvrati solingan 25 so'mlik pul kelar edi.

Bemor og'irlashdi. Sotiboldi xo'jayinining oldiga arzga bordi, ammo bu borishdan muddaosi nima ekanini aniq bilmas edi. Abdug'aniboy uning so'zini eshitib ko'p af-suslandi, qo'lidan kelsa hozir uning xotinini oyoqqa bostirib berishga tayyor ekanini bildirdi, keyin so'radi:

-Devonaiy Bahovaddinga hech narsa ko'tardingmi? G'avsula'zamga-chi?

Sotiboldi ketdi. Bemorning oldidan jilmaslik va shu bilan birga tirikchilik uchun xonaki bir kasb qilishga majbur bo'ldi — har xil savatchalar to'qishni o'rgandi. U, ertadan-kechgacha oftobshuvoqda, gavronlar ichiga ko'milib savat to'qiydi. To'rt yashar qizchasi qo'lga ro'molcha olib, onasining yuzini karaxt, nimjon, xira pashshalardan qo'riydi: ba'zan, qo'lida ro'molcha, mukka tushib uxlab qoladi. Hammayoq jim. Faqat pashsha g'ing'illaydi, bemor ingraydi: har zamon yaqin-yiroqdan gadoy tovushi eshitiladi: "Hay do'st, shaydullo banomi ollo, sadaqa raddi balo, baqavli rasuli xudo..."

Bir kechasi bemor juda azob tortdi. U har ingraganda Sotiboldi chakkasiga burov solingan kishiday talvasaga tushar edi. Qo'shnisi — bir kampirni chaqirdi. Kampir bemorning to'zigan sochlarini tuzatdi, u yoq-bu yog'ini siladi, so'ngra... o'tirib yig'ladi.

-Begunoh go'dakning saharda qilgan duosi ijobat bo'ladi, uyg'oting qizingizni! — dedi.

Bola anchagacha uyqu g'ashligi bilan yig'ladi, keyin otasining g'azabidan, onasining ahvolidan qo'rqib, kampir o'rgatgancha duo qildi.

-Xudoyo ayamdi daydiga davo beygin...

Bemor kundan-kun battar bo'lib, oxiri o'sal bo'ldi. "Ko'ngilga armon bo'lmasin" deb "chilyosin" ham qildi-rishga to'g'ri keldi. Sotiboldi to'qigan savatchalarini ulgurji oladigan boqqoldan yigirma tanga qarz ko'tardi. "Chilyosin"dan bemor tetik chiqqanday bo'ldi; shu kechasi hatto ko'zini ochib, qizchasini yoniga tortdi va pichirladi:

-Xudo qizimning saharlari qilgan duosini dargohi-

ga qabul qildi. Dadasi, endi tuzukman, qizimni saharlari uyg'otmang.
Yana ko'zini yumdi, shu yumganicha qaytib ochmadi — saharga borib uzildi.
Sotiboldi qizchasini o'lik yonidan olib, boshqa yoqqa yotqizayotganda qizcha uyg'ondi
va ko'zini ochmasdan odatdagicha duo qildi:
-Xudoyo ayamdi daydiga davo beygin...